ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Raimjonova Mushtariy Abdug'affor qizi

Andijon Davlat Chet Tillar Instituti talabasi

raimjonovamushtariy52@gmail.com

Murxonova Nilufarxon Yigitaliyevna

Andijon Davlat Chet Tillar Instituti o'qituvchisi

Murxonovanilufar56@gmail.com

IMOM BUXORIY ILMIY MEROSINI O'RGANISHNING TARIXIY AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk hadisshunos Imom Buxoriy bobomizning yuksak ilmiy merosi, saodatli hayot yo'lidagi o'rnakli hayot tarzi va u kishining ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi yoritib beriladi. Hozirgi kunda yoshlarimiz o'z ota-bobolari tarixini o'rganishlari qanchalar muhimligi, bizgacha yetib kelgan hadis va qolgan ilmlarni keyingi avlodlarga ham yetkazishimiz lozimligi haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga Imom Buxoriyning asarlari xorijiy davlatlarda ham asosiy ilmiy kitoblar qatorida ekani bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Hadisshunos, olim, ilmiy meros, tarixchilar, Bag'dod, muhaddis, shogird, mutaxassis, sarkarda, xizmat

Annotation: This article highlights the great scientific legacy of the eminent hadith scholar, Imam Bukhari, his exemplary life path filled with wisdom, and his significant contribution to the development of science. It emphasizes the importance of today's youth studying the history of their ancestors and the necessity of passing down the hadiths and other valuable knowledge to future generations. Additionally, it discusses how Imam Bukhari's works are recognized as fundamental scientific books in foreign countries as well.

Key words: Hadith scholar, scholar, scientific heritage, historians, Baghdad, Muhaddith, student, scholar, commander, service.

Аннотатция: В данной статье освещается великое научное наследие выдающегося хадисоведа Имама Бухари, его достойный жизненный путь, являющийся примером для подражания, а также его вклад в развитие науки.

Подчеркивается важность изучения истории своих предков для современной молодежи, необходимость передачи хадисов и других знаний следующим поколениям. Также рассматривается тот факт, что труды Имама Бухари включены в число основных научных книг и за пределами нашей страны.

Ключевые слова: Хадисовед, ученый, научное наследие, историки, Багдад, мухаддис, ученик, знаток, полководец, служба.

Imom Buxoriyning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra al-Buxoriy bo'lib, u melodiy 810-yil 21-iyulda, hijriy 194-yilda Buxoroda tug'ilgan. Imom Buxoriy butun O'zbekiston xalqining faxridir. Sababi hadislarni jamlashdek sharafli va

mashaqqatli amal bilan shug'ullangan olim, nafaqat Respublikamiz balki butun Islom davlatlari orasida taniqli. Imom Buxoriyning yoshlikdanoq ilmga qanchalar muhabbatli bo'lgani, kichik yoshdanoq Rosulullоh Sollallohu Alayhi Vasallamning hadislarini yodlash bilan shug'ullanib kelgani barchaga ma'lum. U zotning otalari Ismoil ibn Ibrohim ham o'z davridagi mashhur muhaddislardan bo'lgan, u kishi Malik ibn Alasning shogirdlaridan edi. Otasining muhaddislik xizmatini esa uning o'g'li Imom Buxoriy davom ettiradi. U hallollikni, poklikni, islom diniga bo'lgan yuksak hurmatni ham otasidan o'rgangan. Otasini juda erta yo'qotgan buyuk hadisshunosni onasi tarbiyalaydi. Buxoriy ilm bilan shug'ullanadi, madrasada o'qigan kezlarida ham sinfining eng ilmli talabalaridan bo'ladi, 16 yoshida esa onasi va akasi bilan xaj safariga boradi. Shundan keyin u o'z ilm yo'lini Makkada davom ettiradi.

Muso ibn Horun Xammol imom Buxoriyni ta'riflab shunday deydi: "Menimcha, Islom ahlining barchasi jamlanib, Muhammad ibn Ismoilga o'xshash yana bir kishini yetishtirmoqchi bo'lishsa, buni eplay olishmaydi"[1]. Haqiqatdan ham Imom Buxoriyning umri davomida islom dini va musulmonlar uchun qilgan ishlari taxsinga sazovordir.

Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shundan keyin shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to'pladi[2]. Imom Buxoriyning ko'plab davlatlarga safar qilib ilm olgani bejiz emas, u o`z davrining eng zukko ustozlaridan dars olgan. Shuningdek hadis to'plash jarayonida ham, kerak bo`lsa hadis eshitish uchun uxlamay uzoq yo'llarni bosib o'tgan. Imom Buxoriyning mana shunday jiddu-jahd, tirishqoqlik bilan hadis yig'ishga urinishi bizdan bir necha asrlar avval naql qilingan hadislarning bizgacha yetib kelishiga sabab bo'ldi. Biz yoshlar buyuk ajdodlarimiz bilan qancha faxrlansak kam. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir o'zbek farzandi o'z tarixini o'rganishi va milliy g'urur tuyg'usini his etishi lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham buyuk bobolar ruhini hurmatlashni tez-tez takrorlamoqda: "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"[3]. Bu so'zlarning isboti sifatida yurtimizda Imom Buxoriy maqbarasi qayta ta'mirlandi, U zotning hayoti to'liq yoritilgan bir qator kitoblar nashrdan chiqdi. Maktab va Oliy ta'lim mussasalarida esa ma'naviyat soatlari o'tkazilib, Imom Buxoriyning buyuk ilmiy merosi haqida darslar tashkillashtirildi. Bundan tashqari Davlat rahbarimiz tashabbusi bilan "Oliy darajali Imom Buxoriy" ordeni ta'sis etildi. Bu orden bilan marhum Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari, hamda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining sobiq raisi Ziyovuddin ibn Eshon Boboxon ham ushbu orden bilan taqdirlandilar. Mamlakatimizda Imom Buxoriy sharafiga o'tkizilgan islohatlardan yana biri esa bu maktab darsliklari jumladan 9-sinf adabiyot kitobiga buyuk muhaddis bobomiz hayoti haqida ma'lumotlarning qo'shilgani bo'ldi. Sababi maktab yoshidan Imom Buxoriy va u kishining kitoblarini o'qigan jamiyat yoshlari to'g'ri e'tiqod, islomiy bilim, sharqona odob, va insoniy fazilatlarni o'zlashtirgan holda ulg'ayadi. Bola yoshligidan ota-onani hurmat qilishni, do'stlarga yordam berishni, qo'shnichilik qoidalarini o'rganadi va ularga amal qiladigan bo'ladi.

Imom Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrod", "At-Tarix Al-Kabir", "At-Tarix al-Avsot", "Kitob ad-Du'afa" kabi 20 ga yaqin asarlari bor. Ushbu kitoblarning eng mashhuri "Sahih al-Buxoriy"dir. Ushbu asar Qur'ondan keyingi eng muhim manbaa hisoblanadi. Sababi musulmonlar islom dinidagi shariat asoslari va hukmlarni Qur'oni Karimdan yoki Nabiy Sollallohu Alayhi Vasallam hadislaridan oladilar. "Sahih al-Buxoriy" asari esa aynan eng to'g'ri hadislar jamlangan 97 ta asosiy bo'limdan iborat katta kitob hisoblanadi. Imom Buxoriy sahih hadislarni jamlashda roviylarning adolatiga, ularning mustahkam xotira va taqvodorligiga e'tibor bergan. Mustaqil ravishda tasdiqlanmagan yoki Payg'ambarimiz davridagi ishonchli odamlardan

yetib kelmagan hadislarni o‘z kitobiga kirgizmagan. “Sahihi al-Buxoriy” kitobiga mashhur olimlar bir qancha sharxlar yozganlar. Jumladan Anvar Shoh Kashmiriy “Fayzul Boriy ala Sahihi Buxoriy” nomli to’rt jilddan iborat asar yozadi. Ushbu asar Imom Buxoriyning “Sahihi al-Buxoriy” kitobini yoritib bergan keng qamrovli kitob deb tan olinadi. Bu kitob 1357-yilda Hindistonda chop etilgan. Sharhni yozishdan avval muallif “Sahihi al-Buxoriy” kitobini 13 marotaba, unga yozilgan boshqa sharhlarni esa 30 marotabadan boshdan-ohirigacha o‘qib chiqqan[4]. Anvar Shoh Kashmiriyning sharh yozish jarayonida qanchalar ko‘p manbaalarni o‘rganib chiqqani hadis sohibi bo`lmish Imom Buxoriyning hadis kitobi juda keng qamrovli va chuqur bilimga to‘la asar ekanini ko‘rsatib beradi. Imom Buxoriy o‘z sahihida to‘plagan eng to‘g’ri hadislardan esa musulmonlar kundalik ishlarida foydalanishga harakat qilishadi. Bobomiz birgina kitobi orqali bizga 7 725 ta sahih hadisni taqdim etgan. Mana shu raqamlarning o‘zi ham Imom Buxoriy ilm-fanga qanchalar yuksak hissa qo‘shganini ko‘rsatib beradi. Zotan biz muhaddisning faqat birgina asaridagi ma’lumotlarga ko‘z tashladik holos.

Imom Buxoriy qoldirgan ilmiy meros lar islom olamida shariat ilmining asosiy manbaalaridan hisoblanadi. Islomda namoz, ro‘za va shu bir qator amallarning qay tartibda bajarilishini olimlar aynan hadis kitoblari yordamida o‘rganib chiqqanlar. Dunyoning ko‘plab islomiy universitet va maktablarida esa ushbu kitoblardan darslik sifatida foydalanadilar. Imom Buxoriy qoldirgan yodgorliklar arab tilida yozilgan bo‘lishiga qaramay bir nechta davlatlar o‘z tillariga tarjima qilishgan. Jumladan birgina “Sahih al-Buxoriy” kitobining o‘zbek, ingliz, rus, fors, urdu, turk, fors, ispan va boshqa ko‘plab tillarida tarjimasi bor. Hozirgi kunga kelib esa musulmonlar bu kitobning elektron va bosma nusxalarini ham mutolaa qilishmoqda.

Ilm - insonni yuksaltiradi, uni cho‘qqilarni zabt etishiga, jamiyatga foydasi tegadigan manfaatli inson bo‘lishiga yordam beradi. Ilm qanchalar muhim bo‘lsa, axloq ham shu qadar muhimdir. Agar ilm axloq bilan uyg’un bo‘lmasa, u insonni manfaatparasat, yolg’onchi va maqtanchoq qilib q’yishi mumkin[5]. Imom Buxoriyning jamiki kitoblaridan o‘rganishimiz kerak bo‘lgan eng muhim jihatlardan biri bu odob va axloq sanaladi. Mashhur savdogar Abdulloh ibn Muborak ham o‘zining kitoblarida odobli kishini ilmli kishidan ko‘ra ustun qo‘yishini aytgan. Darhaqiqat kishida hamma lol qoladigan ilm bo‘lsayu, ammo u ustozlarini hurmat qilmaydigan, jamiyatiga va xalqiga xizmat qilmaydigan bo‘lsa uning ilmidan foyda yo‘q. Imom Buxoriy kitoblaridagi hadislar esa kishini ilmli bo‘lishga chaqiradi. Bu hadislarning islom jamiyatiga, musulmon yoshlariga foydasi katta deb bemalol ayta olamiz. Imom Buxoriyning ilm yo`liga ergashgan inson halollikni, adolatni, sabr-toqatni va fidoyilikni o‘rganadi. Sababi Imom Buxoriy har doim birovning haqqidan qo‘rquvchi halol, hammaga birdek adolat qiluvchi fazilatli kishi bo‘lgan. Boshiga qancha qiyinchilik kelishiga qaramay sabr-toqat qilgan, yurtidan haydalganida ham aslo noshukr bo‘lmagan.

Imom Buxoriy ilm yo‘lidagi haqiqiy fidoiy inson edi. U umrining qariyb 16 yildan ko‘prog’ini ilm-fanni o‘rganish uchun sarflagan. Xulosa qilib aytganda, Imom Buxoriy nafaqat o‘z davrining kishilari uchun balki, hozirgi kun yoshlari uchun ham katta ilmiy meros qoldirdi. U zotning yozgan kitoblari, ilm yo‘lida qilgan mehnatlari jamiyatimiz rivoji bilan bir qatorda ilm-fanning yuksalishiga ham hissa qo‘shib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Muhammad Tursun. “Sohilsiz dengiz”. Toshkent 2023.-B.23.

2. Imom G’azzoliy. “Ihyo ulumud din”. Toshkent. 2020.-B.78.

3. O’zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy tadqiqot markazi. “Imom Buxoriy”. IBXITM - 2023.

4. Sayid Shohid Rosul Kokoxel. Allama Muhammad Anvar Shoh Kashmiriy fiy zov'i intajatihi al adabiyyati val ilmiyyati - Pokiston: Hovolanpur. 2009.-B.130.

5. https//uz.m.wikipediya.org